

## "NAZARIY MEXANIKA" fanidan Respublika fan olimpiadasi

Respublikamizda oily ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida barcha fanlardan Respublika Fan olimpiadalarining 2-bosqichi yuqori tayyorgarliklar va e'tibor bilan o'tkazilmoqda. 2019-yil 15-16-may kunlari oily ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida I.A.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida "NAZARIY MEXANIKA" fanidan Respublika fan olimpiadasining 2-bosqichi o'tkazildi.



2019 - yil 15-may kuni ro'yxatga olish ishlari va Respublika Fan olimpiadasi ochilish tadbiri bo'lib o'tdi. Respublika fan olimpiadasining ochilish tadbirida t.f.d., prof. K.Karimov so'zga chiqib, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan ta'lim sohasidagi davlat siyosati haqida gapirib, olimpiadaga tashrif buyurgan mehmon professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarni samimiy tabrikladi hamda ularga omad tiladi.



Respublika fan olimpiadasidasing birinchi kuni, ya'ni 15-mayda yozma ish va krossvord, ikkinchi kuni esa test sinovi hamda ijodiy ish yo'nalishlarida shaffof, adolatli tarzda sinovlar o'tkazildi. Respublika fan olimpiadasining yakuniy natijalariga ko'ra, 3-o'rinni Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti 3-bosqich talabasi Sharopov Bobir Nabijon o'g'li, **2-o'rinni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti «Gidrotexnika qurilishi» fakulteti 2-bosqich talabasi Kurseitov Axtem Seyranovich**, 1-o'rinni Toshkent davlat texnika universiteti 2-bosqich talabasi Usanov Doniyor Shukrullo o'g'li egalladi. G'olib bo'lgan ishtirokchi talaba-yoshlar va ularning ustozlariga universitet rektorining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

**“Nazariy va qurilish mexanikasi” kafedrasining axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**